



Bo'lajak pedagoglarning o'ziga ishonchini rivojlantirish xususiyatlari

A.Dawkeeva

NDPI Psixologiya kafedrası dotsenti, PhD

Kalt so'zi: Pedagog, o'ziga ishonch, frontal lobi, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi himoyalash, o'zini anglash.

Annotatsiya: Bu maqalada bo'lajak pedagoglarning o'ziga ishonchni rivojlantirishda insonning maqsadi, munosabati, kechinmalari, holati o'zgarishi va yangidan tuzilishi haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilgan.

Ключевые слова: Воспитатель, уверенность в себе, лобная доля, самоконтроль, самозащита, самосознание.

Аннотация: В данной статье даются научно-теоретические сведения о цели, мироощущении, переживаниях, изменении ситуации и новом формировании личности в развитии уверенности в себе будущих педагогов.

Key words: Educator, self-confidence, frontal lobe, self-control, self-defense, self-awareness.

Abstract: This article provides scientific and theoretical information about the goal, worldview, experiences, change of situation and new formation of personality in the development of self-confidence of future teachers.

Bo'lajak pedagoglarning o'ziga ishonchi ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi muhim omil bo'lib, ta'lim samaradorligini oshiradi. Bo'lajak pedagoglarning o'ziga ishonchi, ularning o'z qobiliyatlari va salohiyatini to'g'ri anglashiga, stressni boshqarish qobiliyatiga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va mentorlik yordamiga bog'liq.

O'ziga ishonchni rivojlantirish bugungi kunda jahonda psixologiyasi fanida boy materiallar to'plangan bo'lib, bu o'z navbatida insonning maqsadi, munosabati, kechinmalari, holati o'zgarishi va yangidan tuzilishi haqida ilmiy-nazariy ma'lumotlar beradi. Ayni paytda psixologiya insonning ruhiy holatini o'rganish, shakllantirish, takomillashtirish, rivojlantirish, yangi sifat bosqichiga o'tish, yangi sharoitga ko'chirish dinamikasini ta'minlash imkoniyati borligi bilan o'ziga xos amaliy va tatbiqiy fanga aylanib borayotganligini qayd etish mumkin.

O'ziga ishonchni rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan neyrofiziologik jarayonlar miyaning ko'plab sohalarida to'plangan, ammo miyaning frontal lobi o'zini o'zi boshqarish uchun eng muhim hisoblanadi. Frontal lobning shikastlanishi yoki uning

konjenital patologiyalari o'z-o'zini nazorat qilishning buzilishiga olib keladi; tajovuzkor va jinoiy xatti-harakatlar ham ko'pincha frontal lob patologiyasi bilan bog'liq. Sharq mutafakkirlari o'ziga ishonchni rivojlantirishning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy hayotda shaxsning roliga katta e'tibor qaratadi. Tashqi muhit va odamlar insonlar orasidagi uyg'unlikni bo'lishi shaxsda ijobiy va salbiy sifatlarning shakllanishiga ta'sir qilishi va shu bois shaxsdagi o'zini nazorat qilishda ijtimoiy muhitni muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [1]. Abu Nasr Forobiyning qarashlarida, inson va borliqni birga munosabatda bo'lishi, shaxslararo munosabatlarni shaxs takomillashuvidagi roli haqida juda ko'plab talqinlar keltirilgan. Shaxsdagi har xil ehtiyojlarni qondirish uni kamolot cho'qqisiga olib boradi va bu uning o'ziga ishonchni rivojlantirishini yanada shakllantiradi, deb aytiladi. Shuningdek, uning asarlarida shaxsning psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiylashuvning roli ko'rsatib o'tiladi.

Ma'lumki, Kaykovusning «Qobusnoma» asarida inson kamolotida axloq va tarbiyaning roli beqiyosligi ko'rsatib o'tiladi. Kaykovus qarashlarida insonni o'ziga ishonchni rivojlantirish muammosi dolzarb muammolardan biri sifatida qaraladi. Uning odob-axloq qoidalariga qanday rioya etish haqidagi, haqiqatgo'y, insonparvar, saxovatli, qanoatli, muruvvatli bo'lishi haqidagi qarashlari, ahamiyatga molik hisoblanadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, Kaykovus o'ziga ishonchni rivojlantirishi insonning kamolotini ko'rsatuvchi axloqiy xislatlardan biri sifatida talqin etgan. Kaykovusning o'ziga xos xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi. O'ziga ishonchni rivojlantirish sharq mutaffakirlarining asarlarida ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Ushbu olimlarning asarlarini tahlil qilish barobarida talabalarda o'zini o'zi idrok qilishning shakllantirishni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Xuddi shu boisdan insonning irodaviy-ruhiy holatlarini aniqlovchi asosiy belgilari mavjuddir. Bunda predmet muhiti obrazini aks ettiradi. Tana a'zolarini harakatlantirish, ularning mazkur muhitga moslashishi, u bilan munosabat o'rnatish ehtiyojidan qoniqishni anglatadi. To'g'ri yoki teskari munosabatga kirishish prinsipi bo'yicha namoyon bo'lish to'g'riligini nazorat qilish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning o'ziga ishonchni rivojlantirishda ijtimoiy amaliyot jarayoni xizmat qiladi. Zero, teskari aloqa yordamida harakat bilan obraz natijasini taqqoslash amalga oshiriladi. Taqqoslash natijasida vujudga keladigan holat bu natijadan oldinroq sodir bo'ladi. Unda borliqning o'ziga xos modeli sifatida namoyon bo'lish imkoniyati mavjud. Insonning barcha irodaviy harakatlari bevosita muloqotga kirishish jarayonida namoyon bo'ladi. Sababi stimul beruvchi omillar, ularning doirasidagi harakatlarni faoliyatga undovchi, xulq-atvor dasturi bajarilishini ta'minlash, unga qidiruv jarayoni va variantlar tanlashni o'zida qamrab oluvchi doimiy ravishda intiluvchi irodaviy aktivlik aks etadi. O'ziga ishonchni rivojlantirishning mazmun – mohiyati va funksiyasini o'rganish iroda psixologiyasidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'ziga ishonchni rivojlantirishni ta'lim-tarbiya bilan bog'lagan holda ishlab chiqarish va sport sohasida maqsadga yo'naltirilgan va tizimli holda o'rganish

XX asrning 50-60 yillaridan boshlandi. Biroq bu holat o'ziga ishonchni rivojlantirish fenomenini uzoq vaqt davomida psixologlar nazaridan chetda qolganligini anglatmaydi. Dastlabki psixologik tadqiqotlarda inson psixik hayoti uchun muhim bo'lgan o'ziga ishonchni rivojlantirishning ayrim xususiyatlari o'rganilganini kuzatish mumkin. N.V.Samoukina tomonidan amalga oshirilgan adabiyotlar tahlilida o'ziga ishonchni rivojlantirish fenomenining o'rganilish tarixi haqida batafsil fikr yuritilgan [2].

O'z-o'zini baholash — bu shaxsning o'z qobiliyatlari va salohiyatini qanday baholashi. A.Bandura o'zining asarida o'z-o'zini baholashning shaxsiy muvaffaqiyatlarga ta'sirini tadqiq etdi. Bandura, shaxsning o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchining, muvaffaqiyat tajribalari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali rivojlanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, o'z-o'zini baholash — shaxsning o'z salohiyatini qanday qabul qilishi va qadr-qimmatini aniqlashning psixologik jarayonidir. A.Bandura o'zining "O'zini ishonch nazariyasi" da o'z-o'zini baholashning shaxsiy muvaffaqiyatlarga ta'sirini tadqiq etdi. Bandura ta'kidlashicha, o'z-o'zini baholash o'z qobiliyatiga ishonchni rivojlantirishga yordam beradi. Shaxsning muvaffaqiyatlari va tajribalari o'z-o'zini baholash darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'ziga ishonchni rivojlantirish muammosini psixologik jihatdan o'rgangan olimlardan biri Z.Freyd bo'lib, u shaxsning o'z xulq-atvorini boshqarish qobiliyatini tushuntirish uchun qaror qabul qilish, xulq-atvorni nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha ichki psixik agentlarni sanab o'tadi. Z.Freyd o'ziga ishonchni rivojlantirishni "Men"ning o'zini o'zi himoyalash instinkti sifatida tahlil qiladi. Uning nazarida "Men"ning rivojlanishi avtomatik tarzda o'ziga ishonchni rivojlantirish kuchayishiga olib keladi. O'ziga ishonchni rivojlantirish tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashga qaratilgan bir qator ta'riflar mavjud. Jumladan, katta rus ensiklopediyasida o'ziga ishonchni rivojlantirish deganda shaxsning o'z xulq-atvori, fikrlari va hissiyotlarini ongli nazorat qilishi, boshqarishi va o'z faoliyatini rejalashtirishi tushuniladi [3]. O'ziga ishonchni rivojlantirish o'z fikrlarini ongli ravishda o'zgartirish, salbiy xatti-harakatlarning oldini olish imkonini beradi. Keltirilgan ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, o'ziga ishonchni rivojlantirishda onglilik, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati va rejalashtira olish funksiyalariga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, shaxsning xulq-atvori, qarashlari, hissiyotlari hamda faoliyat jarayonida o'ziga ishonchni rivojlantirishning mavjud bo'lishi e'tirof etiladi.

Foydalardan adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 224 b
2. Самоукина Н.В. Первые шаги школьного психолога. Психологический тренинг [Текст] //- Ярославль: Академия развития: Академия Холдинг, 2002. - 224 с.
3. Бандура А. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. – М.: Апрель Пресс, Изд-во ЭКСМО-Пресс, 1999. – 346 с.
4. Цагарелли Е.Б. Личностные детерминанты неравновесных психических состояний [Текст] //Дисс. канд. психол. наук. - Казань, 2003. — 188 с.
5. Mead, George Herbert. 1982. The Individual and the Social Self: Unpublished Essays by G. H. Mead, edited by D. L. Miller. Chicago: University of Chicago Press. ISBN 978-0-608-09479-3